

GENDER TENGLIGI NUQTAI NAZARIDAN O'G'IL VA QIZ BOLALAR TARBIYASINING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Denov Tadbirkorlik va Boshqaruv Fakulteti

2-kurs Talabalari

Qarshiyev Samandar To'raqulovich

97. 911 15 03

Emil. qarshiyevsamandar515@gmail.com

Amanov Shaxzod Shoxmardonovich

97 532 69 76

Emil. amanovshaxzod5@gmail.com

Abduhalilov shodmon Isoqovich

992199213

abduhalilovshodmon521@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada gender tengligi konsepsiyasi asosida o'g'il va qiz bolalar tarbiyasiga zamonaviy yondashuvlar yoritilgan. Jamiyatda barqarorlik va teng imkoniyatlar ta'minlanishi uchun oilada farzandlar, ayniqsa jinsga qarab farqlamasdan, adolatli va muvozanatli tarbiya berish zarurligi tahlil qilinadi. Maqolada o'g'il va qiz bolalarga nisbatan mavjud stereotiplar, ularning salbiy ta'siri, shuningdek, gender tengligi prinsiplariga asoslangan tarbiya metodlari, xalqaro tajriba va diniy-ma'naviy qarashlar misolida bayon qilinadi. Oila, ta'lim muassasalari va jamiyatning har bir a'zosi o'z zimmasiga olgan rol ko'rib chiqiladi.

Maqola dolzarb muammolarga javob izlaydi: bugun o'g'il bolalarda mas'uliyat hissi, qiz bolalarda o'zini qadrlash tuyg'usi qanday shakllanmoqda? Tarbiya jarayonida tenglik va adolat tamoyillariga rioya qilinmasa, jamiyatda qanday ijtimoiy disbalanslar yuzaga keladi?

Kalit soʻzlar: Gender tengligi, Oʻgʻil bolalar tarbiyasi, Qiz bolalar tarbiyasi, Gender stereotiplari, Oila muhitida tarbiya, Taʼlimda teng imkoniyatlarʼ Ijtimoiy adolat, Tarbiyada zamonaviy yondashuv.

Kirish: Bugungi globallashuv va raqamli taraqqiyot davrida har bir jamiyat oldida bir qator dolzarb ijtimoiy, maʼnaviy, iqtisodiy va madaniy muammolar turibdi. Oʻzbekiston ham bu jarayonlardan mustasno emas. Yoshlar tarbiyasi, ishsizlik, gender tengligi, taʼlim sifati, axloqiy qadriyatlarning yemirilishi, atrof-muhit muhofazasi, raqamli savodsizlik kabi muammolar hozirgi kun tartibida eng asosiy masalalar qatoridan oʻrin olmoqda. Ushbu maqolada men, oddiy talaba sifatida, jamiyatda koʻzga tashlanayotgan ayrim muammolar va ularning yechimlariga boʻlgan qarashlarimni bayon etmoqchiman.

Yoshlar tarbiyasi va maʼnaviy inqiroz: Bugungi kunda yoshlar orasida befarqlik, internetga haddan ortiq berilish, ijtimoiy tarmoqlarning salbiy taʼsiri, kitobxonlik darajasining pasayishi, bemaʼni kontentga qiziqish kabi holatlar kuzatilmoqda. Bu esa yosh avlodning maʼnaviy inqiroziga olib kelmoqda. Ayniqsa, axloqiy qadriyatlarga nisbatan eʼtibor susayib bormoqda. Bunga birgalikda yechim tapamiz. Masalan quyidagicha ishlarni amalga oshirish mumkin.

- Maktab va oliy taʼlim muassasalarida tarbiya darslari amaliy mashgʻulotlar bilan boyitilishi kerak.
- Yoshlar uchun zamonaviy, ammo mazmunli axborot manbalarini (podkastlar, hujjatli filmlar, motivatsion bloglar) yaratish.
- Internetdagi foydali kontentlar targʻibotini kuchaytirish.
- Har bir mahallada yoshlar uchun bepul maʼnaviy-maʼrifiy toʻgaraklar tashkil qilish.

Ishsizlik va iqtisodiy beqarorlik: Koʻplab bitiruvchilar oʻz mutaxassisligi boʻyicha ish topa olmayotgani, migratsiyaga ketayotgan yoshlar sonining ortib borayotgani ishsizlik muammosining dolzarbligini koʻrsatadi. Ayniqsa, qishloq joylarda bandlik past darajada. Buning yechimi sifatida men quyidgilarni maslahat beraman.

- Kichik va o'rta biznesga berilayotgan imtiyozlarni amalda kengaytirish va ulardan foydalanishni soddalashtirish.
- Talabalarga o'qish davridayoq amaliy ko'nikmalar beriladigan "dualist ta'lim" tizimini joriy qilish.
- Raqamli texnologiyalar orqali masofaviy ishlash imkoniyatlarini yaratish.
- Qishloq joylarida kasb-hunar markazlarini tashkil etish va ular orqali mahalliy ishlab chiqarishga yo'naltirish.

Gender tengligi va stereotiplar: Jamiyatda ba'zi joylarda hali ham "qiz bolaga faqat oila kerak", "o'g'il bola yig'lasa bo'lmaydi" kabi stereotiplar mavjud. Bu esa yoshlarning ijtimoiy faolligini, shaxsiy erkinligini cheklaydi. Biz esa mana shularni amalda qo'llasak maqsadga muvofiq bo'lardi.

- Ta'lim tizimida gender tengligi mavzularini ijtimoiy fanlarga integratsiya qilish.
- Ota-onalar va ustozlar uchun gender tengligi bo'yicha seminar va treninglar tashkil etish.
- Mediada ayollar va erkaklarning ijobiy namunalarini ko'rsatish orqali stereotiplarni yemirish.
- Har ikki jins vakillarini teng darajada rivojlantiruvchi loyihalarni qo'llab-quvvatlash.

Axloqiy qadriyatlarning zaiflashuvi: Hurmat, hayo, vatanparvarlik, sabr-toqat kabi qadriyatlar avvalgidek kuchli emas. Yoshlar orasida so'zlashuv madaniyati, odob-axloq, oilaviy qadriyatlarga bo'lgan munosabat sustlashgan.

Yechim sifatida esa masalan:

- Milliy madaniyat, urf-odatlar, tarixiy shaxslar haqida motivatsion va zamonaviy uslubda kontentlar ishlab chiqish.
- Oilaviy qadriyatlar targ'ibotini ko'proq real voqealarga asoslangan misollar bilan ommaga yetkazish.

- Tarbiya jarayonida maktab, mahalla, masjid va OAVning hamkorligini kuchaytirish.

- Yoshlar orasida ijtimoiy loyihalar, ko'ngilli guruhlar orqali qadriyatlarni amalda targ'ib qilish.

Ta'lim sifati va amaliyotdan uzilish: Ko'plab talabalarning shikoyat qilishicha, oliy ta'limda nazariy bilimlar ko'p, lekin amaliy ko'nikmalar kam. Bu esa bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday holatda esa mana bular qo'l keladi.

- Har bir fanga bog'liq korxona, tashkilotlarda amaliyot tizimini doimiy yo'lga qo'yish.

- Ta'limda innovatsion texnologiyalar va real hayotiy vaziyatlar asosida o'qitish usullarini keng joriy etish.

- Talabalarning mustaqil tadqiqotlar olib borishini rag'batlantirish, tanlovlar va grantlar sonini oshirish.

Ekologik muammolar va atrof-muhitga befarqlik: Havo ifloslanishi, chiqindilar muammosi, suv tanqisligi va daraxtlarning kesilishi bugun katta ekologik muammolardan biri hisoblanadi. Afsuski, ko'pchilik bu muammolarga befarq. Bunday vaziyatda mham har bir muammoga yechim toppish mumkin.

- Har bir ta'lim muassasasida ekologik madaniyatni oshiruvchi darslar va amaliy mashg'ulotlar tashkil etish.

- Plastik va chiqindilarni saralash madaniyatini targ'ib qilish, shahar miqyosida maxsus punktlar ochish.

- Daraxt ekish, suvni tejash, tozalikka e'tibor berish bo'yicha yoshlar aksiyalarini tashkil etish.

- Ijtimoiy tarmoqlarda ekologiyaga oid kontentlar ishlab chiqish va trendga aylantirish.

Jamiyatdagi har bir muammo – bu bir imkoniyat, u bizni harakatga, izlanishga undaydi. Bugungi yoshlar – ertangi kun rahbarlari, shuning uchun biz bu muammolarni nafaqat tan olishimiz, balki ular yechimida faol bo'lishimiz kerak. O'zgarishlar,

avvalo, har birimizdan boshlanishi lozim. Faqat shunda biz ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy barqarorlikka erisha olamiz. “Yaxshi jamiyat – bu muammolarini yashirmaydigan, balki ularni hal qilishga intiladigan jamiyatdir.” (Muallifdan)

Yoshlar tarbiyasi va ma'naviyat. Qur'on: *“Ey mo'minlar! O'zingizni va oilangizni do'zaxdan saqlang...”* (Tahrim surasi, 6-oyat) Ushbu oyatda Alloh har bir mo'min bandaga avvalo o'zini, so'ngra oilasini (ya'ni farzandlarini) iymon, axloq va tarbiya yo'li bilan do'zaxdan saqlashni buyurmoqda. Bu bevosita ota-onaning farzand tarbiyasidagi mas'uliyatini ko'rsatadi. Yoshlar ma'naviyatini tiklash, ularni bema'ni hayot tarzidan saqlash ota-onaning va jamiyatning birlamchi vazifasidir.

Hadis: *“Farzandlaringizga yaxshilikni o'rgating va ularni odobli qiling.”* (Ibn Moja) Bu hadisda farzandlarga ilm emas, aynan **yaxshilik** — ya'ni axloq, mehr-oqibat, sabr-toqat, odob kabi qadriyatlarni o'rgatish ta'kidlanmoqda. Yoshlar axloqiy tayanchga ega bo'lsa, jamiyat mustahkam bo'ladi.

Ishsizlik va mehnatga loqaydlik. Qur'on: *“Inson uchun faqat o'zi qilgan mehnatgagina haqi bor.* (Najm surasi, 39-oyat) Bu oyat har bir kishining rizqi mehnatiga bog'liqligini bildiradi. Ishsizlik muammosining ildizi ko'pincha tashabbus yetishmovchiligi, bilim va hunarning yo'qligiga borib taqaladi. Qur'on mehnatga undaydi va harakat qilgan kishining rizqini Alloh kengaytirishini va'da qiladi.

Hadis: *“Mehnat qilgan kishi Allohning do'stidir.”* (Imom G'azzoliy rivoyati). Bu hadisda mehnat qilgan odamga Alloh tomonidan maxsus e'tibor berilishi aytilmoqda. Yoshlar orasida bandlik darajasi past bo'lsa, jinoyatchilik va befarqlik ortadi. Shuning uchun ham ishsizlik — bu faqat iqtisodiy emas, ma'naviy muammo hamdir.

Gender tengligi va adolat. Qur'on: *“Men sizlardan biron amal qilganingizni — erkak bo'lsin, ayol bo'lsin — zoye qilmasman. Sizlar bir-biringizdانسizlar.”* (Oli Imron surasi, 195-oyat) Alloh taolo bu oyatda jinsga qarab farqlov yo'qligini ochiq aytmoqda: har bir inson Alloh oldida teng. Bu gender tengligining Qur'ondagi aniq asosidir. Ayollar va erkaklar teng ijtimoiy imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak.

Hadis: *“Ayollar erkaklar bilan barobardirlar.”* (Termiziy) Bu hadisda gender tengligining shar’iy asoslari ko’rsatilgan. Jamiyatda bu tenglik e’tiborga olinmasa, salbiy ijtimoiy disbalans yuzaga keladi. O’g’il-qiz tarbiyasida adolatga asoslangan yondashuv zarur.

Axloqiy qadriyatlar va jamiyat. Qur’on: *“Albatta, Alloh adolat, ezgulik va yaqinlarga yordam qilishni buyuradi. Fahsh (uyatsizlik), yomonlik va tajovuzdan qaytaradi.”* (Nahl surasi, 90-oyat). Bu oyat axloqiy va huquqiy tartib-qoidalarining asosi sifatida xizmat qiladi. Jamiyatni saqlab qoluvchi kuch — bu qadriyatlar va odob-axloqdir. Bu oyat har juma namozida o’qiladi — ya’ni bu doimiy eslatmadir.

Hadis: *“Men go’zal axloqni to’ldirish uchun yuborildim.”* (Ahmad ibn Hanbal rivoyati) Payg’ambarimiz (s.a.v.) o’zining nubuvvatidagi asosiy maqsad sifatida “axloqni go’zallashtirish”ni ko’rsatganlar. Demak, axloqiy qadriyatlarni saqlab qolish musulmonlikning eng oliy ko’rinishidir.

Ta’lim va ilmning fazilati. Qur’on: *“Ayting: Bilganlar bilan bilmaganlar barobar bo’lurmi?”* (Zumar surasi, 9-oyat). Alloh ilmlilarni ulug’lamoqda va ularni boshqalardan farqlamoqda. Bugungi ta’limdagi sifat muammosi — bu shunchaki tizim muammosi emas, balki jamiyatning taraqqiyotiga to’siqdir. Ilmni faqat nazariy emas, amaliyot bilan uyg’unlashtirish zarur.

Hadis: *“Ilm olish har bir musulmon erkak va ayolga farzdur.”* (Ibn Moja) Bu hadisdan kelib chiqib, ta’limda ayollarni cheklash, qiz bolaga o’qish shart emas degan fikrlar — Qur’on va sunnatga ziddir. Ilm — tenglik, rivojlanish va ijtimoiy adolatning kalitidir.

Atrof-muhit va inson mas’uliyati. Qur’on: *“Yer yuzida buzg’unchilik qilmanglar. Alloh buzg’unchilarni sevmas.”* (A’rof surasi, 56-oyat) Ekologik muammolar — inson faoliyati natijasi. Bu oyatda tabiatni asrash va yerda muvozanatni saqlash insonga yuklangan mas’uliyat sifatida ko’rsatilgan. Daraxt kesish, suvni isrof qilish, havoni ifloslantirish — bu faqat texnik muammo emas, ma’naviy inqiroz belgilaridir.

Qur'on va hadislar bizga jamiyat hayoti, axloq, mehnat, ilm, tarbiya va tenglik haqida chuqur hayotiy yo'riqnoma beradi. Har bir muammo — Qur'on nurida yondashilsa, yechimi mavjud. Shuning uchun zamonaviy ijtimoiy muammolarga qarshi kurashda faqat dunyoviy emas, ma'naviy manbalar asosida ham yondashuv bo'lishi kerak. Bu esa yosh avlod tarbiyasida yanada keng ko'lamli ijobiy o'zgarishlarga olib keladi.

Xulosa

Bugungi kunda jamiyatimizda yoshlar tarbiyasi, gender tengligi, ishsizlik, axloqiy qadriyatlarning yemirilishi, atrof-muhitga e'tiborsizlik, ta'limdagi muammolar kabi dolzarb ijtimoiy masalalar keng muhokama qilinmoqda. Bu muammolar har bir oila, har bir mahalla, har bir ta'lim muassasasi, qolaversa butun xalqimiz hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu maqolada bu masalalarning har biriga Qur'on va hadislar asosida chuqur yondashuv qilinib, diniy manbalardan kelib chiqqan holda muammolarning sabablari va mumkin bo'lgan yechimlari tahlil qilindi.

Yoshlar tarbiyasi nafaqat oilaviy, balki jamiyat miqyosidagi mas'uliyatdir. Qur'oni Karimda va hadisda farzandlarimizni axloqli, ilimli va odobli yetishtirish borasida qat'iy ko'rsatmalar bor. Ayniqsa, zamonaviy axborot oqimida tarbiyani faqat maktab yoki ota-onaning zimmasiga yuklab qo'yish yetarli emas. Mahalla, masjid, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar ham bu jarayonning muhim ishtirokchisiga aylanishi kerak.

Gender tengligi ham Qur'on asosida tasdiqlangan prinsip bo'lib, ayollar va erkaklar Alloh oldida barobarligi, har ikkisi ham ilm olish, ishlash va jamiyatda faol bo'lish huquqiga ega ekani isbotlab berildi. Bu, ayniqsa, ayollarga nisbatan mavjud ijtimoiy stereotiplarga qarshi ishonchli dalildir.

Mehnat va ishsizlik masalasi Qur'onda "faqat o'z mehnating bilan yashagin" tamoyili orqali asoslangan. Bu nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy tamoyildir. Bandlikka erishish uchun davlat siyosati bilan bir qatorda, odamlarning o'zlari ham tashabbuskor bo'lishi, hunar o'rganishi, zamonaviy kasb egallashi kerak.

Atrof-muhitga bo'lgan munosabat, isrofning oldini olish, axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash haqida Qur'on oyatlari va hadislar asosida fikr yuritildi. Jamiyatni axloqiy jihatdan mustahkamlash uchun bu qadriyatlar bolalikka singdirilishi kerak. Shu asosda xulosa qilish mumkinki, jamiyatdagi eng og'riqli muammolarning chuqur ildizlari faqat siyosiy yoki iqtisodiy emas, balki ma'naviy, tarbiyaviy va axloqiy asoslarda yotadi. Ularni hal etish uchun Qur'on va sunnat asosidagi yondashuvlar, islomiy tarbiya, uzluksiz ta'lim va ommaviy ongni shakllantirish choralari muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. **Qur'oni Karim** – O'zbekiston Musulmonlari Idorasi nashri, Toshkent, 2013.
2. **Imom Buxoriy. "Al-Jome' as-Sahih"** – Hadislar to'plami, tarjima va izohlar.
3. **Ibn Moja, "Sunan"** – Islom axloqi va tarbiyasi haqidagi hadislar.
4. **Termiziy, "Jome'"** – Payg'ambarimiz (s.a.v.) hadislaridan jamiyatga oid rivoyatlar.
5. **Imom G'azzoliy. "Ihyo Ulum ad-Din"** – Axloq, tarbiya va tasavvufga oid mashhur asar.
6. **Yusuf Qardoviy. "Islomda ayol huquqlari"** – Gender tengligi haqida zamonaviy sharhlar.
7. **Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. "Tafsiri Hilol"** – Qur'on oyatlarining izohi bilan tarjimasi.
8. **Abduvaliy qori Mirzayev. "Islom axloqi"** – Tarbiya va ma'naviyat masalalari bo'yicha.
9. **Al-Azhar fatvolari to'plami (arab tilidan tarjima)** – Zamonaviy ijtimoiy masalalarga yondashuv.
10. **O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi nashrlari** – Islom va jamiyat masalalari.